



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKACI
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

Termiz davlat
universiteti

TerDU



**ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKACI
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**ЁШ ОЛИМЛАР RESPUBLIKA
ИЛМИЙ АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯСИ
2017 йил 31 март - 1 апрель
III ҚИСМ**

**RESPUBLIKANSKAYA NAUCHNO - PRAKTIЧЕСKAYA
KONFERENCIYA MOLODYKH UCHENYKH
2017 год, 31 марта - 1 апреля
III ЧАСТЬ**

**YOUNG SCHOLARS' REPUBLICAN
SCIENTIFIC - PRACTICAL CONFERENCE
march 31 - april 1, 2017
III PART**



ТЕРМИЗ

	Хамраева Д.А., Худойбердиев Б.Ш.	
183.	MALAKALI KIMYO O'QITUVCHILARI TAYYORLASHGA QO'YILADIGAN TALABLAR Mustapayev I., Ergashev I., Norqulov U.	219
184.	STIROL VA AKRILAMIDNING BIRGALIKDA SOPOLIMERLANISH JARAYONIGA DASTLABKI MONOMERLAR ARALASHMASI NISBATINING TA'SIRINI O'RGANISH Ganiyev Baxtiyor Shukurulloevich, Hojiyev Ilyos Odilovich	220
185.	КИМЕ ФАНИНИ УЎҚИТИШДА КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДАШУВ Лапасова Ф.А., Умирова Н.О.	221
186.	TO STUDY INTREMOLECULAR INTERATIONS OF NITROBENZENE AND ITS VARIOUS SOLUTIONS Umarov Otabek, Amonov Akhtam	222
187.	ЧАСТОТНАЯ ЗАВИСИМОСТЬ СКОРОСТИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ ЗВУКА В ОКРЕСТНОСТИ ОСОБОЙ ТОЧКИ ВОДНОГО РАСТВОРА Семенов Д.И., Махмудов Ф.	222
188.	ТОНКАЯ СТРУКТУРА СПЕКТРА РАССЕЯННОГО СВЕТА В ВОДНЫХ РАСТВОРАХ С ОСОБОЙ ТОЧКОЙ Сабилов Л.М., Зарифова З.	224
189.	СПЕКТРЫ КОМБИНАЦИОННОГО РАССЕЯНИЯ БРОМОФОРМА Яхшибоев К., Эрнazarов З	225
190.	ZAMONAVIY ADSORBSIYA NAZARIYASIDA YUZADAGI MARKAZLARNI MODELASHTIRISHNI TATQIQ ETISH Islomov F.F, Akchurina D.A.	226
191.	ГЕЛЬ ҲОСИЛ БЎЛИШИДА ЭРИТИШ ЭФФЕКТЛАРИ Ирисбоев Ф., Жўраев Б., Эшбеков А.А.	227
192.	МЕСТОРОЖДЕНИЕ ТЯЖЕЛЫХ НЕФТЕЙ И ПРИРОДНЫХ БИТУМОВ И ПРОБЛЕМЫ ИХ ОСВОЕНИЯ Ярбобоев Т.Н., Хазратова Г.Ш.	228
193.	TABIIY SUV MANBALARI TARKIBIDAGI ZARARLI INGREDIYENTLARNI ANALITIK NAZORAT QILISH Do'stbekov I., Do'stmurodov M.	230
194.	DARYO SUVLARINING KIMYOVIY ANALIZI XUSUSIDA Tuxsanov F.S., Ruziyev E.A.	231
195.	ЛИТИЙНИ КЕЛИБ ЧИҚИШИ, ТАБИАТДА УЧРАШИ ВА ҲОЗИРГИ КУНДА САНОАТДАГИ АҲАМИЯТИ Очилов И.С.	232
196.	4-БРОМФЕНОЛНИ КАТАЛИТИК МИҚДОРИДАГИ КАТАЛИЗАТОРЛАР ИШТИРОКИДА ХЛОРАЦЕТИЛЛАШ Маматқулов Н.Н.	233
197.	КОМПЛЕКСЫ 2-ГИДРОКСИМИНОКАРБОКСИЛАТА КОБАЛЬТА(III) С ЭТИЛЕНДИАМИНОМ Узакбергенова З.Д., Сидрасулиева Г.Б.	234
198.	МИС (II) ИОННИНИ ГКМКТ РЕАГЕНТИ БИЛАН КОМПЛЕКС БИРИКМАСИНИНГ СПЕКТРОФОТОМЕТРИК ОПТИМАЛ ШАРОИТЛАРИНИ ТАНЛАШ Лапасова Ф.А.	235
199.	ОСОБЕННОСТИ РАЗРАБОТКИ АЛГОРИТМА РАСЧЕТА ВЫХОДА ХИМИЧЕСКОЙ РЕАКЦИИ Мустанов У., Сент-Энон М.А.	236
200.	ТАНТАЛНИНГ ҲОСИЛ БЎЛИШИ, ТАБИАТДА УЧРАШИ ВА САНОАТДАГИ АҲАМИЯТИ Очилов И.С.	236
201.	ЧЎКИНДИ ҲАВЗАЛАРНИНГ НЕФТГАЗЛИЛИК ИСТИҚБОЛЛАРИНИ ГЕОКИМЁВИЙ УСУЛДА БАШОРАТЛАШ Ярбобоев Тўлқин Нурбобоевич	237
202.	СОССУЛУС LAURIFOLIUS ЎСИМЛИГИ АЛКАЛОИДЛАРИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШ Аллабердиев Фарход Хамроевич, Мирзаева Мунира Бердиқобиловна	239
203.	KIMYOVIY BILIMLARNI INTERFAOL USULLAR ORQALI AMALGA OSHIRISH YO'LLARI Suvonov J.R., Xudoynazarova Sh.A.	240
204.	ИЗУЧЕНИЕ АГРЕГАЦИИ В ЖИДКОМ ЦИКЛОГЕКСАНОНА И ЕГО РАСТВОРАХ ПО СПЕКТРАМ КОМБИНАЦИОННОГО РАССЕЯНИЯ СВЕТА Суярова Ю., Юсупов М	241
205.	КИМЕ ТАЪЛИМИДА ГРАФИК ОРГАНАЙЗЕРЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ Худойназарова Г.А., Ганиев Б.Ш.	241
206.	KIMYODAN TALABALAR BILIMINI MUSTANKAMLASHDA MA'LUMOTNOMALARNING O'RNINI Turg'unov D.E., Haydarova Ch.	242
207.	КОМПЛЕКСЫ 2-ГИДРОКСИМИНОПРОПИОНАТА КОБАЛЬТА(III) С ФЕНАНТРОЛИНОМ Узакбергенова З.Д, Сидрасулиева Г.Б.	243
208.	О-ТОЛИЛХЛОРАЦЕТАТ АСОСИДА ГОММОЗ ВА ИЛДИЗ ЧИРИШ КАСАЛЛИКЛАРИГА ҚАРШИ МОДДАЛАР СИНТЕЗИ	243

hayotga tayyorlash jarayonini boshqarishdan iborat. O'zlashtirish-o'quvchilarning faoliyati bo'lib, o'qituvchi tushuntirishi yoki boshqa usullarda olingan fan asoslarini o'rganishdan iborat. O'qitish jarayonida quyidagi bosqichlar mavjud: o'quv materiallarini o'quvchilar qabul qilishi, bu materiallarni anglash, xotiraga joylash o'quv va amaliy masalalarni yechishda qo'llash. O'quv predmeti sifatida kimyo o'qitish metodikasi oliy o'quv yurtlarida o'rta maktab o'quvchilari tayyorlashda birinchi darajali ahamiyatga egadir. Uni o'qitish jarayonida professional bilimlarga, ko'nikmalarga ega bo'lgan, kelgusida o'rta maktab o'quvchilarini bilimini samarali tarbiyaga ega bo'lgan o'qituvchilarni yetishtirishni ta'minlovchi mutaxassislarni shakllantirish amalga oshiriladi. Yetuk mutaxassisni professional darajada tayyorlash quyidagi bilim, saviya va malakalarni shakllantirish orqali amalga oshiriladi:

1. Kimyoviy bilim asoslari, uning metodologiyalarini o'zlashtirish, kimyoviy o'quv eksperimental ko'nikmalarni hosil qilish. Kimyo fani vazifalarini, uning xalq xo'jaligi va tabiiy fanlar majmuidagi o'rni va rolini tushinish.

2. Umumta'lim maktablaridagi kimyo kursi masalalarini atroflicha va chuqur tushunishi, jamiyatning hozirgi zamon bosqichidagi kimyoviy ta'limning mazmuni va darajasini bilish, o'quv-tarbiyaviy jarayonga jamiyat rivojlanish konsepsiyasi holati va mamlakatimizdagi professional ta'lim holatlarini jalb etish.

3. Pedagogik-psixologik, siyosiy-gumanitar fanlar, va oily ta'lim hajmi kimyo kursi hajmi asoslarini bilish.

4. Kimyo o'qitish metodikasi zamonaviy rivojlanish darajasini va nazariy asoslarini o'zlashtirish.

5. Maktab programmasi, darslik va o'quv qo'llanmalarini asoslash va tanqidiy tahlil qila olish.

6. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarini, informatsion texnologiyalarni, o'quv jarayoniga qo'llay olish.

7. Kimyo kursi materiallariga ijodiy xulosalar chiqarish, kimyoviy xodisalarni tushintirishda ilmiy metodologiyalarini qo'llash, o'quvchilar rivojlanishi va tarbiyasida kimyoviy materiallardan foydalanish.

8. Jamiyat manfaatlarini hisobga olish maktab kursi yo'nalishida kasbga yo'naltiruvchi ishlarni amalga oshirish.

9. Kimyoviy tajribalarni nazariy kimyoviy asoslarini o'zlashtirish, kimyoviy tajribalarni o'tkazish texnikalarini mukammal o'rganish.

10. Asosiy texnik va informatsion o'rgatish vositalarini o'zlashtirish, ulardan o'quv jarayonida foydalanish.

11. Sinfidan tashqari kimyo bo'yicha metodik va tashkilotchilik ishlarini mazmun va vazifalarni bilish.

12. Boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorlikni o'rgatish.

13. Kimyo xonasi ishlarini tashkil etish faoliyatini o'rganish, bunda xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilish.

Kimyo o'qitish metodikasi kursini o'tgan talabalar maktabda, professional texnik muassalarda o'qitishda nazariy va amaliy jihatdan mazmunli, bilim bilan dars berish qobiliyatlarini shakllantirish va takomillashtirishni nazarda tutadi. Shunday qilib, oliy o'quv yurtlarida kimyo o'qitish metodikasi kursi ma'lum malaka va yuqori saviya hosil qilish uchun xizmat qiladi. Pedagogik oliy o'quv yurtlarida "Kimyo o'qitish metodikasi" fani kimyo o'qituvchilarini professional tayyorlash imkoniyatini yaratadi. O'qituvchining ustaligi uning o'quvchilar orasidagi obro'-e'tibori uning metodikasini qay darajada o'zlashtirilganligi bilan belgilanadi. Kimyo o'qitish metodikasi fanining asosiy vazifasi bo'lajak o'qituvchini o'rta maktabda ishlash uchun kerak bo'ladigan bilim ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iboratdir. Kimyo o'qitish metodikasi fani ma'lum bir ketma-ketlikda o'rganiladi. Dastlab o'rta maktabda kimyoni asosiy o'qitish, tayyorlash va rivojlantirish funksiyalari o'rganiladi. Keyingi bosqichda talabalarga kimyo o'qitish jarayonini tashkiliy jihatlarini tanishtiriladi. Bu qismning tashkiliy qismlari o'qitish jarayoni asoslari, o'qitish jihozlari o'qitishning tashkiliy shakllari va fan bo'yicha sinfdan tashqari metodikalar hisoblanadi. Kursning maxsus bo'limi o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiya va kimyo o'qitishda informatsion vositalardan foydalanishga bag'ishlanadi. Yakunlovchi qismda kimyo o'qitish metodikasi sohasidagi va uning amaliy samaradorligini oshirish yo'nalishlari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarining asoslari qarab chiqiladi. Bu uchala bosqichlar bir-biri bilan uzviy aloqadorlikda bo'ladi. Kimyo o'qitish metodikasida asosiy ahamiyatga ega ishlar qatoriga kurs ishlari mavzulari, mustaqil ishlar ustida ishlash, shuningdek o'qituvchining yuqori saviyali kadr bo'lib yetishishda pedagogik amaliyot davrining o'rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Toshkent 1997 y.
2. Ishmuxamedov R., Abdurahmonov A., Pardaev A. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" Toshkent. "Iste'dod" 2008 y.

STIROL VA AKRILAMIDNING BIRGALIKDA SOPOLIMERLANISH JARAYONIGA DASTLABKI MONOMERLAR ARALASHMASI NISBATINING TA'SIRINI O'RGANISH

Ganiyev Baxtiyor Shukurulloevich¹,

Hojiyev Ilyos Odilovich²

¹Buxoro davlat universiteti, ²G'ijduvon tibbiyot kolleji


Yuqori molekulyar birikmalar kimyosining dolzarb muammolaridan biri bu polimerlarni barqarorlashtirish jarayoni bo'lib, u asosiy monomerlarga tarkibida barqarorlashtiruvchi guruhlar saqllovchi boshqa bir monomerdan kichik miqdorini qo'shib, sopolimerlash orqali oshiriladi.

Akrilamid bilan stirolning sopolimerlanish natijasida qator fizik – kimyoviy xossalarga ega bo'lgan yangi polimer moddalarini olish mumkin.

Sopolimerlanish jarayoni erkin radikal mexanizm bo'yicha organik erituvchi muhitda (benzol, dioksan, DMFA, DMSO, TGF) o'rganildi.

Sintez qilingan sopolimer oq rangli, kukunsimon amorf modda bo'lib, dioksanda DMFA, DMSO, TGF da yaxshi eriydi. To'yingan uglevodorodlarda, suvda va spirtlarda erimaydi.

Sopolimerlanish reaksiyasini quyidagi umumiy sxema bo'yicha ko'rsatish mumkin:



Sopolimer tarkibiga dastlabki somonomerlar aralashmasining ta'sirini monomerlarning konstantriyalarini yig'indisi 0,2 mol/l bo'lgan nisbatlarida va inisiator DAK konstantriyasi monomerlar umumiy massasiga nisbatan 0,1 % bo'lgan holda o'rganildi. Sopolimerlarning tarkibi va monomerlarning nisbiy faollik konstantlari qiymatlari jarayon unumining 7-10% element analiz qilish orqali aniqlandi. (1-jadval)

1-jadval

Akrilamid bilan stiroi sopolimerlari tarkibining monomerlarining dastlabki aralashuvidagi nisbatlariga bog'liqligi

Monomerlar nisbatlari, mol%		Sopolimerning unumi	Azot miqdori	Sopolimer tarkibi		Tavsifiy qovushqoqlik
M ₁	M ₂	%	%	m ₁	m ₂	η, dl/g
Akrilamid - stiroi						
10	90	6,2	1,91	17,27	82,73	0,35
20	80	6,0	3,16	33,32	66,68	0,31
30	70	7,1	3,92	45,98	54,02	0,29
50	50	7,8	4,70	62,32	37,67	0,24
70	30	6,2	5,37	80,18	19,81	0,22
80	20	6,0	5,59	87,06	12,93	0,215
90	10	6,9	5,74	92,11	7,88	0,21

Keltirilgan tajriba natijalariga ko'ra akrilamidni stiroi bilan sopolimerlaganda, makromolekula tarkibida monomerlar bo'g'inlari tartibli ko'rinishda takrorlanadigan sopolimerlarni olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ёриев О.М., Мавлонов Б.А., Худойназарова Г.А., Амонов М.Р., Музаффаров Д.Ч. Стирол сополимерлари. Ўзбекистон Республикаси дastлабки патенти №6037.1999. Расмий ахборотнома-1999. -№4.-6.44.
2. Adebola A. Oketola, Nelson Torto. Synthesis and characterization of poly(styrene-co-acrylamide) polymers prior to electrospinning. *Advances in Nanoparticles*, 2013, 2, 87-93

КИМЁ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДАШУВ

Лапасова Ф.А., Умирова Н.О.

Гулистон давлат университети

Ўзбекистон Республикаси узлуксиз таълим тизимининг Давлат таълим стандарти янги лойиҳасининг мақсади - олинган назарий билим, амалий кўникма ва малакаларни амалиётда қўллаш, татбиқ этишдан иборатдир. Таълим жараёни амалиётда бундай ёндашувга компетенция деб юритиш қабул қилинган.

Компетенциявий ёндашув бу - ўқувчиларнинг шахсий, касбий ва ижтимоий ҳаётларида учрайдиган вазиятларда эгаллаган турли хилдаги малакаларини самарали равишда қўллашга ўргатиш тушунилади.

Компетентлилик (лат. *competens* – лаёқатли, қобилияти бор) шахс билим, кўникма ва тажрибаларининг унинг ижтимоий-профессионал мавқеи ва ўзига тегишли вазифаларни бажариш, муаммолар ҳал қилишга етарлилиги ҳамда ҳақиқий мослик даражаси. Компетентлилик таркибига соф касбий билим, кўникма ва малакалардан ташқари, ташаббускорлик, ҳамкорлик, гуруҳда ишлаш лаёқати, коммуникатив қобилияти, реал баҳолай олиш, мантиқий фикрлаш, ахборотни саралаш ва фойдалана олиш хусусиятлари ҳам киради.

Ўз ичига олади:

- ўзлаштирилиши зарур бўлган билимлар;
- амалий фаолият натижасида шакллланган кўникма ва малакалар;
- талабанинг шахс сифатида шаклланиши ва ривожланиши;

Компетентлилик - шахс билим, кўникма ва тажрибаларининг унинг ижтимоий профессионал мавқеи ва ўзига тегишли вазифаларни бажариш, муаммолар ҳал қилишга етарлилиги ҳамда ҳақиқий мослик даражаси.

Кимё фанини ўқитишда компетенциявий ёндашувнинг асосий мақсади ўқувчиларни ҳар томонлама шакллантириш ва ривожлантириш, кимёвий билимларни ўзлаштириш, кимёвий жараён ва ходисаларни кузатиш, олинган билимларни амалда қўллаш ва атроф-муҳитга нисбатан экологик маданият кўникмасини шакллантиришдан иборат.

КИМЁ фанини ўқитиш жараёнида талабаларда куйидаги компетенциялар шакллантирилади:

1. Коммуникатив.
2. Ахборот билан ишлаш.
3. Кимёвий жараён ва ходисаларни кузатиш
4. Кимёвий жараён ва ходисаларни тушунтириш
5. Элемент ва формулаларни кимёвий тилда ифодалай олиш
6. Кимёвий модда, жиҳозлар билан ишлай олиш ва тажрибалар ўтказиш.
7. Кимёвий билимларни амалиётда қўллаш.

Давлат таълим стандарти ва ўқув дастурида белгиланган компетенцияларни талабалар томонидан ўзлаштириш даражасини аниқлаш мақсадида тажриба-синов ўтказилмоқда. Тажриба-синов жараёнида талабаларда компетенциявий